

## 5-SINF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI MUSTAQIL O'RGANISHIGA IMKON BERISH VOSITALARINI YARATISH

**Abdikarimov I.**

Xiva shahar Ma'mun universiteti

**Yusupova M.**

Xiva shahar 6-son ixtisoslashgan maktab

**Nurmetova S.**

Urganch shahar 2-son akademik litsey

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aynan 5-sinflarda matematika fanini sifatli o'rgatish metodlari va u bilan bog'liq muammolarni yechimlar haqida so'z yuritiladi. Bunda web sayt orqali o'quvchilarni matematika fanini mustaqil o'zlashtirish imkoniyatlari va web saytning qulaylik tomonlari batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif sifati, web sayt, matematik ko'nikmalar, video dasr, test.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о методиках качественного обучения математике в 5 классе и решениях связанных с ними задач. В нем подробно объясняются возможности самостоятельного изучения математики учащимися через веб-сайт и аспекты удобства веб-сайта.

**Ключевые слова:** качество образования, веб-сайт, математические навыки, видеоурок, тест.

### ABSTRACT

This article describes the methods of high-quality teaching mathematics in the 5th grade and the solutions to related problems. It explains in detail about opportunities of the self-study of mathematics for students through the website and the convenience aspects of the website.

**Key words:** quality of education, website, math skills, video lesson, test.

Bugungi kunda maktabda ta'lifni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunga misol qilib pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamin kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish,

xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan[1]. Bunga asosan 2020 — 2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishni asosiy maqsad qilib belgilab olingan. Bundan tashqari 2023-yil Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili deb belgilanishi bejizga emas[2]. Shunday ekan o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish har bir pedagog kadrning insonparvarlik burchi hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan 5-sinflarda matematika fanini sifatli o‘rgatish metodlari va u bilan bog‘liq muammolarni yechimlar haqida so‘z yuritiladi. Odatta zamonaviy boshlang‘ich ta’limning o‘zi nimadan iborat bo‘lishi kerak? Bola 1-4-sinflarda qanday bilimga ega bo‘lishi lozim? O‘quvchilarga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o‘rgatishimiz, boshlang‘ich matematikaga oid hisob-kitoblarni o‘rgatish va mantiqiy savollarni ma’nosini anglatishni o‘rgatishimiz kerak, degan savollar boshlang‘ich ta’lim tizimi oldidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib kelmoqda[3]. Bulardan tashqari ba’zi bir obyektiv va subyektiv ta’sirlar ham 5-sinf o‘quvchilarini matematikani fanini o‘rganishda salbiy ta’sirlarni keltirib chiqaradi. Bular umlasiga quyidagilarni keltirish mumkun.

1. Boshlang‘ich sinfda matematika fanidan (ko‘p xonali sonlarni qo‘sish va ayirish, karra jadvalini yodlamaslik, arifmetik amallar ketma-ketligini to‘g‘ri bajara olmasligi, bitta nomalumli oddiy tenglamalarni yechish) kabi ko‘nikmalarni vaqtida to‘liq o‘zlashtirmasligi.
2. 5-sinfdan boshlab har bir fandan alohida yangi o‘qituvchilarning dars o‘tishi va ularning dars o‘tish metodikasiga o‘quvchini moslasha olmasligi.
3. Matematika faniga o‘quvchining qiziqmasligi.
4. Bitta sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi.

Bunday muammolarni to‘g‘ri yechimini topish uchun yuqorida keltirilgan har bir muammo to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz. Boshlang‘ich 1-4 sinflarda o‘quvchilar soni ko‘p bo‘lishiga qaramasdan dars o‘tish va o‘quvchilarni o‘zlashtirib olishida ota-onalar ham ko‘maklashadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga darsdan keyin qo‘sishimcha o‘qishlar ota-onalar tomonidan moddiy rag‘batlantirish asosida tashkil qilinadi. Bulardan tashqari darslardan keyin ham uy sharoitida ota-onalar 1-4 sinf o‘quvchilariga qo‘sishimcha ko‘maklashadilar. Shu sababli jami o‘quvchilarning taxminan 70% i yuqorida ko‘rsatilgan ko‘nikmalarga qisman erishadi. O‘quvchilarning 5-sinfga o‘tishi va darslikdagi mashg‘ulotlarning bir muncha qiyinlashishi ota-onalarni ko‘pchilagini darsdan keyin uy sharoitida o‘quvchilarga ko‘mak berishiga to‘sinqinlik qiladi. Shu sababli o‘quvchilarning ko‘pchilik qismi ota-onasini ko‘magisiz dars

mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishiga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik ota-onalar 5-sinf o‘quvchilarga qo‘sishimcha dars mashg‘ulotlari uchun moddiy mablag‘ ajratishda qiynaladi. Bu esa o‘quvchilarni ikki tomonlama ko‘maklarsiz 5-sinf fanlarini o‘zlashtirishiga to‘g‘ri kelishini bildiradi. Bundan tashqari 5-sinfda har bir fanni turli xil metodikaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning o‘qitishi ham ularning tez har bir fan o‘qituvchisiga moslashib olishida ma’lum bir vaqtini ta’lab qiladi. Bularning hammasi bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarni ta’lim olishiga ayniqsa matematika fanini o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muammolarni yechimini topishda bir qancha takliflarni keltirishimiz mumkun.

1. Bitta sinfdagi o‘quvchilar sonini 12 ta dan oshirmaslik.

2. Har bir fan o‘qituvchisi o‘zi o‘tayotgan fanidan video darsliklar tayyorlagan bo‘lishi kerak.

3. O‘quvchilarni kitob o‘qish orqali mustaqil ta’lim olishiga o‘rgatish kerak.

4. Web sayt va youtube kanallarida fanlarni o‘rganishda unumli foydalanish ko‘nikmasini shakillantirish kerak.

5. Dars mashg‘ulotlaridan keyin o‘quvchilar uchun qiziqarli zamonaviy to‘garaklar tashkil qilinishi kerak.

Yuqoridaq takliflarga asosan 5-sinflarda aynan matematika fanini mustaqil o‘rgatuvchi web saytlar tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday web saytlar bugungi kunda O‘zbekistonda aynan ta’limga to‘lig‘icha tadbiq qilinmagan bo‘lib, uni tadbiq qilishda quyidagicha talablarni amalga oshirish zarur bo‘ladi.

1. Web saytning kirish interfeysi 5-11 sinf o‘quvchilarga mos sodda tushunarli bo‘lishi kerak.

2. Web saytdan foydalanish jarayonida o‘quvchini qiziqishi ortib borishi kerak zerikish va bezib ketishdan yiroq bo‘lishi kerak.

3. Web sayt o‘quvchining boshlang‘ich bilimini tekshirishi va shunga mos mavzularning o‘rgatish metodikasini belgilab olgan bo‘lishi kerak.

4. Web saytda 5-sinf darsligiga mos metodik yondashish asosida mavzular shakillantirilgan va har bir mavzu o‘qituvchi tomonidan puxta tayyorgarlik asosida o‘rgatilgan bo‘lishi kerak.

5. O‘quvchilarning mavzuni tushunmay qolish ehtimolini hisobga olgan holatda mavzuning bazi bir qismlari 2-3 marta misol keltirish yordamida qayta tushuntirilishi kerak.

6. O‘quvchilarni mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini bahalovchi testlar keltirilgan bo‘lishi kerak.

7. Testlarga to‘g‘ri javob bergenligi uchun rag‘batlantirish maqsadida (musiqa, rasmi sovg‘alar, yuqori ballar yoki boshqa o‘quvchilar orasidagi o‘rnini ko‘rsatuvchi rag‘batlantirishlar) joylashtirilgan bo‘lishi kerak.

8. Noto‘g‘ri javob belgilagan testlarni yechimini video ko‘rinishda ko‘rish imkoniyati joylashtirilgan bo‘lishi kerak.

9. O‘tilgan mavzularni takrorlab, mustahkamlab turuvchi materiallar o‘quvchini bilimini aniqlovchi testlarni 40% ini tashkil qilishi kerak (yangi o‘tilgan mavzularga doir 60% oldin o‘tilgan mavzulardan esa 40% testlar tashkil topgan bo‘lishi kerak).

10. Web sayt har yilda 1 marta zamonga mos yangilanib borishi kerak.

11. Web sayt o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiluvchi motivatsiya beruvchi sms habarnomasiga ega bo‘lishi kerak.

Bunday web saytlarning mavjud bo‘lishi o‘quvchilarga quyidagicha imkoniyatlar beradi.

1. O‘quvchi mактабида о‘ргangan bilimlariga qo‘s Shimcha mustahkam bilim olish imkoniyatini beradi.

2. Kuz, qish, bahor mavsumlarida turli hil sabablarga ko‘ra darslarga qatnasholmay qolsa online matematika fanini o‘zlashtirish imkonini beradi.

3. Matematika faniga bo‘lgan qiziqishini ortadi.

4. O‘zining qulay paytiga qarab web sayt orqali matematika fanidan bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

5. Web saytdan qayta-qayta foydalanish orqali bilimini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

6. Matematikadan bilimini oshirish uchun pullik tayyorlovga ehtiyoj sezmaydi.

7. Web sayt orqali olinadigan bilimlar oliy o‘quv yurtlariga kirishni to‘liq imkonini yaratib beradi.

Web saytning yuqoridaли талаблар асосида ташкил qилиниши о‘quvchilarni vaqtini unumli foydalanishiga va sifatli ta’lim olishiga katta xizmat qiladi. Bunday web saytlarning nafaqat matematika fanida balki barcha fanlardan tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <https://lex.uz/docs/-4807552>
2. <https://uzreport.news/politics/Ozbekistonda-2023-yil-nomi-e-lon-qilindi>
3. M.E. Jumayev, Z.O‘.Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet.
4. <https://mbaza.uz/darsliklar/1-2-3-4-5-6-7-8-9-10-11-sinf-matematika-algebra-darsliklar-matematika-fanidan-barcha-sinf-darslik/>
5. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/76-matematika>
6. <https://bilimlar.uz/barcha-fanlardan-yangi-2021-yil-maktab-darsliklari-pdf/>